

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKSIDA FUQAROLIK HUQUQI VA
HIMOYA QILINISH VOSITALARI HAQIDA**

ABOUT CIVIL RIGHTS AND MEANS OF PROTECTION
IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

О ПРАВАХ ГРАЖДАН И СПОСОБАХ ИХ ЗАЩИТЫ
В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Norimonova Gulmira

Andijon davlat pedagogika instituti

*Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va
huquq ta‘limi yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya: Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik huquqi shaxsning huquqiy mavqeini, erkinliklarini va mulk huquqlarini himoya qilishni ta‘minlab kelmoqda. Fuqarolik huquqi, shuningdek, shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish uchun bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida Fuqarolik huquqini himoya qilishga doir bir qancha yangiliklar amalga oshirilgan. O‘zbekistonda fuqarolik huquqi va uning himoya qilish vositalari shaxslarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash, adolatli ijtimoiy hayot tartibini yaratish uchun juda muhim sanaladi.

Annotation: Current in the Republic of Uzbekistan, civil rights are provided with the protection of the legal status, freedoms and property of the person. Civil law, as well as a number of activities of persons regulate relations and are working to protect the rights of citizens. In the Republic of Uzbekistan, a number of innovations have been made to protect civil law. Civil law and its protection in Uzbekistan are very important for ensuring the rights and freedoms of individuals, creating the order of fair social life.

Аннотация: действующее в Республике Узбекистан, гражданские права обеспечиваются защитой правового статуса, свобод и имущества лица. Гражданское право, а также ряд деятельности лиц регулируют отношения и работают над защитой прав граждан. В Республике Узбекистан был сделан ряд инноваций для защиты гражданского права. Гражданское право и его защита в Узбекистане очень важны для обеспечения прав и свобод отдельных лиц, создавая порядок справедливой социальной жизни.

Kalit so‘zlar: Fuqarolik, huquq, kodeks, erkinlik, mulk huquqi, adolat, abritraj, meditatsiya.

Keywords: Citizenship, law, code, freedom, property rights, justice, arbitration, meditation.

Ключевые слова: Гражданский, закон, кодекс, флейенс, право собственности, справедливость, Абритра, Медитация.

Kirish: O‘zbekiston Respublikasida Fuqarolik huquqi shaxslar, yuridik shaxslar hamda davlat o‘rtasidagi mulkiy va nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Fuqarolik huquqi- shaxslarning bir biri bilan va davlat bilan bo‘lgan munosabatlarni tartibga solib turuvchi huquqiy tizimning muhim qismlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida har bir fuqaro fuqarolik huquqi orqali o‘z mulkiga egalik qilish hamda uni boshqarish, shu bilan birga undan foydalanish huquqlariga ega bo‘ladilar. Bu kabi huquqlar davlat tomonidan himoya qilinadi va asosiy qonunlar orqali mustahkamlanadi. Fuqarolar ya’ni jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar o‘z fuqarolik huquqlariga o‘z erklariga muvofiq ega bo‘ladilar va bu huquqlarini o‘z manfaatlarini ko‘zlab amalga oshiradilar. Ular shartnoma asosida o‘z huquq va burchlarini belgilashda va qonunchilikka zid bo‘lmagan har qanday shartnoma shartlarini aniqlashda erkin bo‘ladilar. Masalan, tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasining butun hududida erkin harakatda bo‘ladi.

Asosiy qism: Fuqarolik huquqi tizimi O‘zbekiston Respublikasida quyidagi tamoyillarga tayanadi:

1. Fuqarolik huquqi barcha shaxslar uchun teng va adolatli bo‘lishi kerak;
2. Fuqarolar o‘z huquqlarini amalga oshirishda erkinlikka ega bo‘lishi kerak. Lekin, bu erkinlik boshqa shaxslarning huquqlariga zarar yetkazmasligi kerak bo‘ladi;
3. Har bir shaxs o‘z huquqlarini qonuniy tarzda amalga oshirish huquqiga egadirlar;
4. Har bir shaxs o‘z mulkiga ega bo‘lishi va undan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi.

Agarda, Fuqarolik huquqi buzilgan holatlarda, shaxslar o‘z huquqlarini himoya qilishi uchun bir nechta vositalarda murojaat qilishi ham mumkin. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- 1.Sudga murojaat qilish huquqi;
- 2.Ma’lumot olish huquqi;
- 3.Fuqarolik javobgarligi;
- 4.Ijtimoiy himoya vositalari orqali;

5.Arbitraj va Meditatsiya orqali bo‘ladi. Ya’ni, fuqarolik nizolarini hal qilishda, sudga murojaat qilishdan oldin tomonlar o‘rtasida arbitraj yoki meditatsiya orqali nizolarni hal qilishi mumkin. Bu tizimlar ko‘pincha iqtisodiy nizolar, shartnomavit masalalar yoki ish haqidagi nizolarni hal qilishda qo‘llaniladi. Arbitraj va meditatsiya fuqarolik huquqini tezroq va arzonroq amalga oshirishga imkon beradi.

Bugungi kunga kelib, O‘zbekistonda fuqarolik huquqini himoya qilishga doir bir qancha yangiliklar amalga oshirilgan bo‘lib, ulardan biri bu raqamli huquqlarni himoya qilish hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar va internetning keng tarqalishi bilan shaxsiy huquqlarni himoya qilishga katta e’tibor berilmoqda. Bu borada maxfiylik,

shaxsiy ma'lumotlarni to'plash ham tarqatish bilan bog'liq qonunlar orqali mustahkamlab borilmoqda. Fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, ayniqsa, sud tizimi, ijtimoiy himoya vositasi va zamonaviy qonunlarni doimiy ravishda takomillashtirish orqali amalga oshirib kelinmoqda. Shaxslar o'z huquqlarini himoya qilishlarida zamonaviy yondashuvlardan foydalanib sudga murojaat qilishlari va huquqiy vositalardan foydalanishlari mumkin.

Fuqarolik huquqining manbalari: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlar, Fuqarolik kodeksi va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi 2 ta qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi 1995-yil 21-dekabrda, ikkinchi qismi esa 1996-yil 29- avgustda qabul qilingan. Faqat ikkala qismi ham bir vatda- 1997-yil 1-martda kuchga kirgan. Shuningdek, Fuqarolik huquqining norasmiy manbalari:1) Ish muomalasi odatlari; 2)Mahalliy urf-odat va an'analar .

Xulosa: Mening fikrimcha, zamonaviy dunyodan shaxsiy hayot fuqarolik-huquqiy huhofoza obyektiga aylanib ulgargan deyishimiz mumkin bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, fuqarolik huquqi shaxsninh huquqiy holatini va erkinliklarini muhofaza qilishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, huquqiy nizolarni hal qilishda muhim ahamiyatga egadir. Bular orqaligina fuqarolarning qonun oldida tengligini va adolatni ta'minlashga yordam beradi deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi;
- 3.<https://lex.uz>;
- 4.<https://arxiv.uz>;
- 5.<https://uz.wikipedia.org>.